

## UMUMTA'LIM MAKTABLARDA O'ZBEK TILINI O'QITISH HAMDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARI

*Mamatkarimova Mohinur Abdiqodirovna.*

*Samarqand shahar 42-umumiy o'rta ta'lim maktab O'zbek tili fani o'qituvchisi.*

*Mutaxassis.*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada ona tili fanlarini o'qitishni pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda ta'lim samaradorligini oshirish, dars jarayonida ta'limiy o'yinlar o'quvchilarni faol ishtirokiga aylanish yo'llari hamda ona tili va adabiyot fanlaridagi muammoli mavzulardan kelib chiqib, bog'liq muammoni ajratib olish orqali yetuk malakaga ega bo'lishlar masalalari yoritilgan. **Kalit so'zlar:** ta'limiy o'yinlar, texnologik xarita, muammoli vaziyat, innovasion texnologiyalar, interfaol metodlar.*

**Аннотация:** *В данной статье на основе методов повышения эффективности обучения родному языку и литературоведению с использованием педагогических технологий рассмотрены способы, с помощью которых обучающие игры становятся активным участием учащихся в ходе урока, а также проблемные темы в работе матери. языка и литературоведения, вопросы приобретения передовых навыков освещаются путем выделения сопутствующей проблемы.*

**Ключевые слова:** *обучающие игры, технологическая карта, проблемная ситуация, инновационные технологии, интерактивные методы.*

**Annotation:** *In this article, based on the methods of increasing the effectiveness of teaching mother tongue and literary sciences using pedagogical technologies, the ways in which educational games become the active participation of students in the course of the lesson, and the problematic topics in mother tongue and literary sciences, issues of acquiring advanced skills are highlighted by isolating the related problem.*

**Key words:** *educational games, technological map, problem situation, innovative technologies, interactive methods.*

Dunyoning barcha rivojlanayotgan davlatlari (hatto bir qator rivojlangan davlatlar ham) hozirgi globllashuv vaqtda o'z oldiga hamma bolalarni umumiy o'rta ta'lim jarayoniga to'liq qamrab olish masalasini qo'ygan bir vaqtda, mustaqil O'zbekistonimizda ushbu muammo allaqachon muvaffaqiyatli hal etilgan bo'lib, uzluksiz ta'limda masofaviy ta'limni qo'llab, o'quvchilar bilimni baholashda raqamli texnologiyalardan samarali foydalanmoqda. Bugungi kunda navbatdagi ustuvor vazifa sifatida, sifatli ta'lim-tarbiya berish, ta'limning samaradorligini oshirish masalasi qo'yildi. Ta'lim jarayonida interfaol metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish kundan-kunga ortib bormoqda. Bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchilarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxsni rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini bajaradi. Ta'lim jarayonida o'quvchi asosiy figuraga aylanadi. Shuning uchun umumta'lim maktablarida zamonaviy o'qitish metodlari - interaktiv metodlar, innovasion texnologiyalarning o'rni va roli benihoya kattadir. Bu metodlarning o'ziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog va o'quvchilarning birgalikda faoliyat ko'rsatish orqali amalga oshiriladi. Bunday pedagogik hamkorlik jarayoni o'ziga xos xususiyatlarga ega. Darslarni innovasion texnologiyalardan foydalanish asosida tashkil etish ijobiy natija beradi, chunki o'qituvchi innovasion faoliyat yuritgandagina ta'lim mazmuni o'zgaradi. O'quv mashg'ulotlari samaradorligini oshirishda ona tili va adabiyot darslariga interfaol metodlar va ta'limiy o'yinlardan foydalanish o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, ijodiy izlanish va mantiqiy fikrlash doiralarini kengaytirish bilan bir qatorda ularni fanga bo'lgan qiziqishlarini ham orttiradi. Quyida biz ana shunday metodlardan ayrimlari haqida fikr yuritib, ulardan namunalar keltiramiz: Mashg'ulotni o'tkazish tartibi muammo o'zi nima degan savol asosida mavzuga kirib boriladi.

Muammo bilish va bilmaslikning o`rtasi bo`lib, bunda muammoning dolzarbligi va o`ziga xosligi nazarda tutiladi. Bir mavzuga oid qator muammolar olinib, undan eng dolzarblari ajratiladi. Mashg`ulotda o`qituvchi ishtirokchilarni guruhlarga ajratib, darsni o`tkazish tartib-qoidalari va talablarini tushuntiradi. Chunki, ushbu texnologiyani amalga oshirish jarayoni bosqichli ketma-ketlik asosida olib boriladi.



*Texnologiyaning afzalliklari.* O`quvchilar hamkorlikda faoliyat olib boradilar. Muammoni aniqlash ko`nikmalari shakllanadi. Diqqatni idrok qilishni. mantiqiy fikrlashni o`rganadi. Muammolar ichidan dolzarbini ajratib olishni o`rganadi. *Kamchiliklari.* Vaqt ko`p sarflanadi. Barcha ishtirokchilarning fikrlari to`liq inobatga olinmasligi mumkin. O`zaro bir to`xtamga kelish uchun ortiqcha mulohazalar qayd etilishi kuzatiladi va h.k. Muammoli vaziyat va muammoning bayoni. Tafakkur - inson oldida turgan masala va muammolarni yechishga olib keladigan idrok bo`lib, tafakkur muammoli vaziyatdan kelib chiqadi hamda muammoni yechishga qaratilgan bo`ladi.

*Muammoning qo`yilishi.* Muammonining bir necha yechim yo`llari mavjud ekanligi va ular ichidan eng optimal variantini tanlash shuningdek, muammoning yechimini topish. Muammoli vaziyatni shakllantirish tamoyillari. Muammoli o`quv toshiriqlari. Muammoli vaziyatlarni yaratish metodi orqali o`quvchilarni turli muammolardan chiqib ketish yo`llarini axtarishga, kezi kelganda ana shu muammoning yechimini topishga yo`naltirish lozimligi tushuntiriladi. Masalan, G'.G'ulomning "Mening o`g`rigina bolam" hikoyasi asosida o`quvchilarni asar matnidan kelib chiqib, muammoni topishga, muammoni keltirib chiqargan sabablar hamda ushbu muammoni hal etish yo`llari haqida fikrlar bildiriladi. Masalan, hikoyadagi o`g`ri haqiqatan ham

o'g'rimi, muammosi qo'yilsa, ushbu muammoni keltirib chiqaruvchi sabablar - xalqning og'ir hayotga giriftor bo'lishi, mahalliy sharoitning og'irligi, noto'g'ri davlat boshqaruvi, ishsizlik, xalq boyligi huzurini boshqalar ko'rishi, urushning xalqqa yetkazgan zarari, deya mulohazalar bayon etilsa, muammoni hal etish yo'llari - mamlakat aholisini savodxon qilish, yurtni bosqinchilar zulmidan ozod etish, mingboshi, ellikboshi kabi chalasavod rahbarlar o'rniga savodli xalq vakillaridan tayinlash, ishsizlikni bartaraf etish, jamiyatni yanada rivojlantirishga o'z hissasini qo'shish kabilar nazarda tutiladi. Muammoli vaziyat yaratish usullari: - o'qituvchi o'quvchilarga dars mavzusi bilan bog'liq ziddiyatli holatni tushuntiradi va uni yechish yo'lini topishni taklif qiladi; - bir masalaga doir turli nuqtai-nazarlarni bayon qiladi; - hal etish uchun yetarli bo'lmagan, ortiqcha ma'lumotlar bo'lgan yoki savolning qo'yilishi noto'g'ri bo'lgan masalalarni yechishni taklif etadi va boshqalar. Muammoli vaziyatni hal etish darajalari: - o'qituvchi muammoni qo'yadi va o'zi yechadi; - o'qituvchi muammoni qo'yadi va uning yechimini o'quvchilar bilan birgalikda topadi; - o'quvchilarning o'zlari muammoni qo'yadilar va uning yechimini topadilar. Muammoli vaziyatni yechishda qo'llaniladigan usullar: - muammoni turli nuqtai-nazardan o'rganish, tahlil qilish; - solishtirish, umumlashtirish; - faktlarni aniqlash va qiyoslash; - vaziyatga bog'liq xulosalar chiqarish; - o'quvchilarning o'zlari aniq savollar qo'yishi va boshqalar. Psixologik tadqiqodlardan ma'lum bo'lishicha, imlo savodxonlik asta-sekinlik bilan shakllanadi. Amaliy ishlardan qoidaga o'tishda ham o'zlashtirish jarayoni sekinlik bilan kechadi. Dastlab o'qituvchi rahbarligida og'zaki muhokama qilinadi. Asta-sekin o'quvchilar o'ylab, mulohaza qilib anglay boshlaydilar. Barcha yozuv darslarida o'quvchilarga to'g'ri yozish qoidalarini ta'kidlab turish va amaliy ishlarni bajarish orqali ularning imlo savodxonliklarini oshirish mumkin. Barcha ona tili darslarida o'quvchilar bilishini va malaka qobiliyatlarini takomillashtirish maqsadida oldin o'tilgan darslarni takrorlashga vaqt ajratiladi. Takrorlash bilimlarni aniqlashga, hisobga olish va shu bilan bir vaqtda mustahkamlashga yordam beradi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida oldin o'tilganlarni takrorlash bilan bir vaqtda va takrorlash jarayonida oz-ozdan yangi bilimlar berib boriladi. Takrorlash orqali o'quvchilar o'z bilimlarini tartibga soladilar, mustahkamlaydilar. Ona tilidan bilim

berishda o'quvchilarning hayotiy tajribasiga tayanish muhimdir. O'qituvchi nazariy xarakterdagi umumlashtirish zarur bo'lgan daliliy materiallarni yig'ish bosqichida ham, berilgan bilimlarni amaliyotga tatbiq etish uchun ham bolalarning hayotiy tajribasiga, nutqqa oid amaliyotiga tayanadi. Tilga oid bilimni o'rganish natijasida o'quvchilar nutq faoliyatining sifati o'zgaradi, ongliligi ortadi. Tilni o'rganishni hayot bilan bog'lash dunyoning moddiyligini tushunishga asos yaratadi. Bu bilan bir paytda ona tili darslarining asosiy vazifalaridan biri bo'lmish o'quvchilarda to'g'ri kuzatish va o'z fikrlarini og'zaki va yozma shaklda aniq bayon etish ko'nikmasini o'stirish masalasi hal qilinadi. Bunda o'qituvchidan o'quvchilarda dialektik fikrlash ko'nikmasini shakllantirishga alohida e'tibor berish talab etiladi. Dialektik tafakkur keng ma'noda hodisalarning boshqa hodisalar va jarayonlarga bog'liqligini hisobga olib, ularni har tomonlama mavjud belgilari yig'indisi bilan rivojlanishda ko'rish ko'nikmasini ta'riflaydi. Shunday qilib, tilni o'rganish jarayonida maktab yoshidagi o'quvchilarda ilmiy dunyoqarash asoslarini shakllantirishga o'qituvchining metodologik yondashuvi, o'quvchilar o'zlashtiradigan ijtimoiy hodisa sifatida rivojlanib boruvchi til haqidagi bilimlar majmuasi, o'quvchilar o'rganib oladigan bilish usuli, tilni o'rganishga asos bo'ladigan materialning bilim berishdagi, g'oyaviy-siyosiy va badiiy qimmatini hal qiluvchi ta'sir korsatar ekan.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni. / Barkamol avlod – 5. O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. T.: Sharq, 1997. 20-29 betlar.
2. "Oriental Art and Culture" Scientific-Methodical Journal - (3) III/2020 ISSN 2181-063X 185 <http://oac.dsmi-qf.uz>
3. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi,- Xalq ta'limi, 1998, 1-son.
4. 3" Tilshunoslik atamalarining izohli lug'ati ". N.Uluqov.Namangan
5. "Darsda hammasi bo'lmasa ham pedagogikaning asosiy qismi markazlashgan". (Совершенство процесса обучения. М. 1971.